



**KAM TAMINLANGAN OILALARNINIG IJTIMOIIY HIZMATDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*Sharof rashidov nomidagi Samdu, psixologiya va ijtimoiy siyosy fanlar
fakulteti , ijtimoiy ish yo'nalishi 1 kurs talabasi*

Sulaymonova Go'zal Samad qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy xizmatdan foydalanishga kam taminlangan oilalarning qay darajada imkoniyatlari bor, shuningdek kam taminlangan oilalar ijtimoiy holatini yaxshilash uchun qanday xizmatlardan foydalanilish kerakligi haqida bayon etilgan. Bundan tashqari davlat tomonidan ijtimoiy holatni yaxshilash uchun ko'rsatilayotgan chora tadbirlar haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar: Soliq, imtiyoz, yagona reestr, huquq, nafaqa, yordam puli, mablag', nikoh, pul, temir daftar.

Bugungi ijtimoiylashuv dunyoda iqtisodiy muammolardan biri kam taminlangan oilalarni qisqartirish va ularni ish bilan taminlash bu xaqida ko'plab qonunlar va qarorlar qabul qilingan. Hozirgi kunga kelib ijtimoiy holatni yaxshilash uchun kam taminlangan oilalarga ham guvohnoma berilmoqda bu haqida qisqacha malumot o'rnida aytish joizki. O'zbekistonda ko'p oilalar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda va davlat yordamiga muhtoj bo'lgan oilani kam ta'minlangan deb tan olish to'g'risidagi guvohnoma - bunday oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan turli ijtimoiy yordam dasturlari va imtiyozlarga yo'l ochib beradigan rasmiy hujjatdir. Ushbu guvohnomani olish kam ta'minlangan oilalarga pul to'lovlari, kommunal xizmatlar uchun chegirmalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi imtiyozlar kabi bir qator afzalliklardan foydalanish imkonini beradi, bu ularning moliyaviy ahvolini sezilarli darajada yaxshilaydi va turmush sifatini oshiradi. Kam taminlangan oilalarni qo'llab -quvvatlash uchun yana bir qadam tashlandi bulardan biri. 2019 yilda YUNISEF va Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonalari bilan birgalikda «Yagona ijtimoiy reyestr»ni ishlab chiqish boshlagan. Birinchi bosqichda, tizimning moliyaviy xarajatlarini YUNISEF o'z zimmasiga oldi. Bizga YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan ajratilgan grant mablag'lari hisobidan axolini band qilish uchun xorijiy kompaniya jalb etildi. 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab Vazirlar Mahkamasining 308-qaroriga asosan "yagona ijtimoiy reyestr" tizimi tashkil etildi bu tizim Sirdaryo viloyatida ilk marotaba faoliyatini boshladi va yaxshi natijalarga erishildi Bundan tashqari yangi qarorlar qabul qilindi 2025-yil 1-yanvardan boshlab, O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalarini qo'llab-quvvatlovchi yangi qonunchilik kuchga



kirdi. Ushbu o'zgarishlar, oilalarning iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ijtimoiy yordam va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan va juda ko'p imtiyozlarga ega.

Nafaqa va moddiy yordamning davom etishi

Kam ta'minlangan oilalarning bolalariga to'lanayotgan nafaqa va moddiy yordam, oilaning rasman band bo'lmagan a'zolari ishga joylashgan yoki tadbirkorlik faoliyatini boshlagan taqdirda ham davom ettiriladi. Ushbu yordamlar, oila a'zolarining bandligi va tadbirkorlik faoliyatining boshlanishidan so'ng 6 oydan oshmagan muddatga davom etadi. Bunday yordamlar bolalarning nafaqa olish muddatigacha beriladi.

Kam ta'minlangan oilalar a'zolariga ijtimoiy soliq imtiyozlari

Kam ta'minlangan oilalardan biri, agar u mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'lmagan ish haqiga ega bo'lsa, ijtimoiy soliqni uch yil davomida 1 foiz stavkada to'laydi. Bu imtiyoz, oilaning ijtimoiy himoyasini ta'minlashga yordam beradi va ular uchun ishlash imkoniyatlarini yaratadi.

Ijtimoiy shartnoma asosida ko'rsatiladigan yordamlar

Kam ta'minlangan oilalar uchun davlat tomonidan taqdim etiladigan yordamlar, ijtimoiy shartnoma asosida taqdim etiladi. Bu shartnoma, oila a'zolarining bandligini ta'minlash, o'z tomorqalaridan samarali foydalanish (ekin ekish), oila a'zolarining ta'lim olish, kasb-hunar va xorijiy tillarni o'rganish, shuningdek, ularning salomatligini nazorat qilish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, oila a'zolarining yashash sharoitlari, uy-joyini toza va tartibli saqlash majburiyatlari ham shartnoma doirasiga kiradi.

Yangi qonunchilikdagi bu o'zgarishlar, kam ta'minlangan oilalarga yanada ko'proq yordam ko'rsatish, ularni jamiyatda faol va mustahkam o'rin tutishga rag'batlantirish maqsadida joriy qilinmoqda. Bu yangiliklar, nafaqat oilalarning farovonligini oshirishga, balki ularning kelajakda iqtisodiy mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 17.10.2023 yildagi 547-son qarori bilan Hukumatning ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi

Hujjat «Temir daftar»ga kiritilgan ijtimoiy ahvoli og'ir oilalarning muammolarini tizimli ravishda tezkor hal etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni belgilash zarurati munosabati bilan qabul qilindi. Xususan, «Temir daftar»ni yuritish orqali ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vaqtinchalik tartib (28.04.2021 yildagi 250-son VMQ bilan tasdiqlangan). Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining sessiyalari



oralig'idagi davrda kechiktirib bo'lmaydigan hollarda, zudlik bilan yordam ko'rsatish zaruriyati yuzaga kelganda – «Temir daftar»ga kiritilgan oilalarga bir martalik moddiy yordam bir ish kunida tuman (shahar) hokimlari qarorlari bilan beriladi. Hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 20.10.2023 yildan kuchga kirdi

Shuni alohida takidlab o'tish joizki, 2021 yil 1 sentyabrga qadar tayinlangan ijtimoiy nafaqa va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam avtomatik tarzda, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatishning yangi tartibiga asosan nafaqa miqdori oshishi nazarda tutilgan fuqarolardan qo'shimcha ariza va hujjatlar talab etmagan holda, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasiga o'tkazilishi belgilab qo'yildi. Har bir narsa qonunchilikda ko'rsatilgan va shu oraqali oiladagi ijtimoiy muamosi hal qilinadi bularga yoshlar daftar, temir daftar, ayollar daftar, va shu kabi ijtimoiy himoya restriga kiritilgan shahslarga va oila azolariga yordam ko'rsatiladi.

Kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun ta'limda qo'shimcha imkoniyatlar ham yaratilgan

Endilikda kam ta'minlangan oilalar farzandlarining oliy ma'lumotli bo'lishi uchun **qo'shimcha sharoitlar yaratilmoqda**. Ushbu tashabbus ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda ta'limga kirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan.

Ta'limga kirish uchun qanday imtiyozlar joriy etildi?

✓ **Ta'lim krediti foizsiz beriladi** – kam ta'minlangan oilalar farzandlari kontrakt asosida o'qish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun **foizsiz ta'lim krediti ajratiladi**.

✓ **Qo'shimcha grant ajratiladi** – iqtidorli, lekin moliyaviy imkoniyati cheklangan yoshlar uchun **davlat grant o'rinlari kengaytiriladi**.

✓ **Kontrakt to'lovining bir qismi qoplab beriladi** – davlat tomonidan moliyaviy yordam ajratilib, **o'qish to'lovining bir qismi qoplab beriladi**.

Bu imtiyozlar oliy ta'limga kirish istagida bo'lgan kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun katta imkoniyat yaratadi.

Xulosa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalar va ularning oila azolari davlat qaramog'iga olgan va qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Shunda oilada kimdir jismonan sog'lom bo'lmasa ularga davlat yordam ko'rsatadi agarda o'sha inson davlat xodimi bo'lib ishlagan bo'lsa pul mablag'I ko'proq davlat tomonidan ajratiladi. Bundan tashqari kam taminlangan oilalar ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari jamiyatning adolatli va barqaror rivojlanishi uchun muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu oilalar odatda



moliyaviy resursi cheklangan, talim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlarga kirish imkoniyatlari past bo'lgan oilalardir. Shu sababli ularning ijtimoiy himoya tizimidan samarali foydalanishi nafaqat oilaning farovonligini, balki jamiyatdagi tenglik va ijtimoiy barqarorlikni ham taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sa. Abdilxayevich, "Kam ta'minlangan oilalarga psixologik "ijtimoiy xizmatlar va psixologik yordam haqida amaliy tahlil (2025). Foydasi: mahalliy kasbiy tajriba va psixologik yondashuv.
2. "Yangi O'zbekiston ijtimoiy himoya tizimining o'ziga xos xususiyatlari" (CyberLeninka) — milliy islohotlar, yagona reyestr va ijtimoiy yordamning yangi mexanizmlari tahlili. Foydasi: davlat siyosatini kontekstga joylash.
3. Turli mahalliy taqdimotlar va amaliy qo'llanmalar (masalan, "Oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash" PDF materiallari) — mahalla va mahalliy organlardagi amaliy ishlar uchun.
4. **O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy himoya va pensiya tizimi haqidagi qonunlari, imtiyozlar, to'lovlar (lex.uz)** — ijtimoiy yordam turlari, nafaqa va kafolatlar haqidagi rasmiy normativ hujjatlar uchun.
5. **"Ijtimoiy himoya — yagona reyestri" va unga oid hisobotlar (Stat.uz, Huquqplus va boshqa rasmiy manbalar)** — kam ta'minlangan oilalarni ro'yxatlash, ma'lumotlar almashinuvi, yordam taqsimoti mexanizmlari haqida ma'lumot. Bu tizimni tushunish va amaliy ma'lumot olish uchun zarur.
6. Huquqiy maslahat va ariza berish tartiblari haqida saytlar (Advice.uz, Huquqplus) — kam ta'minlangan deb e'tirof etilish, nafaqa olish uchun ariza topshirish tartiblari.
7. O'quv ishlari, magistrlik/mikro-tadqiqotlar (arxiv.uz, inlibrary.uz) — mavzuga oid bitiruv ishlari va amaliy loyihalarni topish mumkin.